



BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA TAYM-MENEJMENTNING ZAMONAVIY METODLARINI QO'LLASH МЕХАНИЗМИ.

Nurmaxmadova Madina

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Menejment yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biznes jarayonlarini optimallashtirishda taym-menejmentning zamonaviy metodlari – Agile, Kanban va Lean usullarini qo'llash mexanizmlari tahlil qilingan. Zamonaviy korxonalar faoliyatida vaqt resurslarini samarali boshqarish raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada ushbu metodlarning nazariy asoslari, ularni biznes jarayonlarida qo'llash imkoniyatlari hamda samaradorlikka ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: biznes jarayonlari, taym-menejment, Agile, Kanban, Lean, optimallashtirish, boshqaruv samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизмы применения современных методов тайм-менеджмента – Agile, Kanban и Lean в оптимизации бизнес-процессов. В условиях современной экономики эффективное управление временными ресурсами является важным фактором повышения конкурентоспособности предприятий. В статье раскрываются теоретические основы данных методов, а также возможности их применения в управлении бизнес-процессами и их влияние на повышение эффективности деятельности организаций.

Ключевые слова: бизнес-процессы, тайм-менеджмент, Agile, Kanban, Lean, оптимизация, эффективность управления.

Abstract. This article analyzes the mechanisms of applying modern time management methods such as Agile, Kanban, and Lean in optimizing business processes. In the context of the modern economy, effective management of time



resources is an important factor in increasing the competitiveness of enterprises. The article examines the theoretical foundations of these methods, their application in business process management, and their impact on improving organizational efficiency.

Keywords: business processes, time management, Agile, Kanban, Lean, optimization, management efficiency.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatida samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, vaqt resurslarini to‘g‘ri boshqarish biznes jarayonlarining samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan taym-menejmentning zamonaviy usullarini qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda biznes jarayonlarini optimallashtirishda **Agile, Kanban va Lean** kabi boshqaruv metodlari keng qo‘llanilmoqda.

Agile metodologiyasi asosan loyihalarni boshqarishda qo‘llaniladigan moslashuvchan boshqaruv tizimi hisoblanadi. Ushbu metod kichik bosqichlar orqali ishni rejalashtirish va natijalarni tezkor baholash imkonini beradi [4]. Agile qo‘llanilganda: Ish jarayoni tezlashadi, Jamoa a'zolari o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi, qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, **Google, Spotify, Amazon, IBM** singari yetakchi IT-kompaniyalari o‘z tizimlarini yaratishda Agile metodologiyasining **Scrum** yoki **Kanban** kabi shakllaridan foydalanib, natijadorlikni yaxshilashga muvaffaq bo‘lganlar. **IBM** tashkilotining 2021-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, Agilega asoslangan holda boshqarilgan loyihalarda muvaffaqiyat ko‘rsatkichi 2,5 martaga yuqori natijaga ko‘tarilgan [3]. **Deloitte** tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga binoan, korxonalar Agile metodologiyasini qo‘llash orqali mahsulot sifatini 40% gacha ko‘tarishgan.



Kanban – ish jarayonlarini vizual taqsimlash orqali boshqarish usuli hisoblanadi. Bu usulda vazifalar maxsus Kanban doskasi orqali nazorat qilinadi [3]. Yaponiyaning **Toyota** kompaniyasi tomonidan yaratilgan bu tizim ish oqimini vizual boshqarishga qaratilgan. Bugungi kunda 56% kompaniyalar bu usuldan foydalanishadi. Uning afzalliklari: vazifalarning aniq taqsimlanishi; ish jarayonining shaffofligi; vaqtni tejash imkoniyati.

Lean metodi esa asosiy e'tiborni resurslardan samarali foydalanishga qaratadi. [5]. Ushbu metodlar ish jarayonlarini tezkor tashkil etish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va xodimlar faoliyatini samarali muvofiqlashtirishga xizmat qiladi [1]. Ko'plab tashkilotlarda biznes jarayonlarini tashkil etishda vaqtni samarali taqsimlash muammosi mavjud. Bu esa ish jarayonining sekinlashishi, resurslardan samarasiz foydalanish va raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi. Shu sababli zamonaviy taym-menejment metodlarini biznes jarayonlariga integratsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqotchi olimlar tomonidan taym-menejment va biznes jarayonlarini boshqarish masalalari ko'plab adabiyotlarda keng yoritilgan. Masalan:

1. **A.X. Karimovning "Zamonaviy boshqaruv tizimlari va korxonalar samaradorligi"** nomli **asarida** zamonaviy boshqaruv tizimlari, shu jumladan Lean Managementning korxonalar faoliyatiga ta'siri tahlil etilgan. Muallif Lean menejmentni joriy etish orqali biznes jarayonlar samaradorligini oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini asoslab beradi.

2. **Sh.Q. Ismoilovning "Biznes jarayonlarini boshqarish va optimallashtirish"** **asarida** biznes jarayonlarini optimallashtirish masalalari atroflicha yoritilgan. Muallif Lean Management tamoyillarini tatbiq etish korxonalarda boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi.



3. David J. Anderson “*Kanban: Successful Evolutionary Change for Your Technology Business*” nomli **asarida** Kanban orqali ish jarayonlarini vizuallashtirish va vaqtni boshqarish mexanizmi haqita yoritib bergan.

4. Bas Vodde “*Scaling Lean and Agile Development*” nomli **maqolasida** katta tashkilotlarda Agile va Lean metodlarini qo‘llash orqali vaqt va resurslarni optimallashtirish ko‘rib chiqilgan.

5. D. Yusupov ham “*Biznes jarayonlarini optimallashtirishda zamonaviy boshqaruv usullari*” nomli **maqolasida** Agile va Lean elementlarini qo‘llash orqali biznes jarayonlarini takomillashtirish yo‘llari yoritib bergan.

Tadqiqot Metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalarda biznes jarayonlarini optimallashtirishda taym – menejmentning zamonaviy metodlarini o‘rni va samaradorligini aniqlashdir. Shuning uchun, tadqiqot jarayonida avvalo uchta metodlarni hammasi o‘rganib chiqildi ya’ni nazariy adabiyotlar tahlil qilindi, jumladan, mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlari, maqolalar va amaliy tadqiqotlar ko‘rib chiqildi. Keyin esa chuqurroq yondashuv uchun metodlardan bittasi ya’ni **Lean Konsepsiyasi** tanlab olindi. Bu orqali Lean menejmentning tamoyillari, vositalari va ularning biznes jarayonlardagi roli aniqlangan. Tadqiqot davomida amaliy yondashuvlar ham qo‘llanilgan. Korxonalarda Lean Managementni joriy etishning amaliy imkoniyatlari o‘rganilib, jarayonlarni kuzatish, xodimlar bilan intervyu o‘tkazish va ichki ma’lumotlarni yig‘ish orqali natijalar tahlil qilindi. Shu bilan birga, Lean tamoyillarining mavjud boshqaruv metodlari bilan solishtirilishi orqali ularning samaradorligi va afzalliklari aniqlangan. Olib borilgan tahlillar asosida Lean Managementni tatbiq etishning biznes jarayonlariga ta’siri chuqur o‘rganildi, bunda xarajatlarni minimallashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tartiblarini soddalashtirish, vaqtni tejash hamda jarayon samaradorligini oshirish kabi imkoniyatlar baholandi. Tadqiqot metodologiyasi shuni ko‘rsatadiki, Lean Management nafaqat nazariy jihatlarda,



balki amaliy faoliyatda ham korxonalar ishini optimallashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, biznes jarayonlarini optimallashtirishda zamonaviy taym-menejment metodlarini qo'llash korxonalar faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Aniq misol keltiradigan bo'lsak, **Toyota** kompaniyasi **Lean Managementni** muvaffaqiyatli tatbiq etgan eng birinchi va mashhur namunalardan biri hisoblanadi. 1950-yillarda kompaniya Lean tushunchasining negizini tashkil etuvchi tizimni yaratdi. Buning natijasida, Toyota xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirdi, inventarizatsiyani minimal darajaga tushirdi va nuqsonlar darajasini pasaytirdi, bu esa sifatni va raqobatbardoshlikni yaxshilashga olib keldi.

2000-yillarning boshlarida esa, **General Electric (GE)** operatsion samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish maqsadida Lean prinsiplarini faol ravishda joriy etishni boshladi. Asosiy strategiya sifatida Lean va Six Sigma instrumentlarini birlashtirish qo'llanildi, bu esa GEga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish, buyurtmalarni tezroq bajarish hamda xato va nuqsonlar darajasini kamaytirish imkonini berdi. Natijada, sifat va mijozlarga xizmat ko'rsatish yaxshilandi hamda operatsion xarajatlar qisqardi.

Demak, Lean Management va metodlar integratsiyasi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi, balki kompaniya madaniyati va strategik raqobatbardoshlikni ham kuchaytiradi. Umuman olganda, Lean Management prinsiplari va amaliyotlari tashkilotlarga samaradorlikni, sifatni va mijozlar qoniqishini oshirishga yordam beradi, shuningdek, resurs sarfini va ishlab chiqarish vaqtini kamaytiradi. Tahlillarga ko'ra, quyidagi 5 ta muhim bo'lgan jihatlar kuzatildi (1-jadval)

Lean foydalari	Konsepsiyasi	Tahlili
----------------	--------------	---------



1. Mijozga yo‘naltirish va qoniqishni oshirish.	Lean Managementning markazida mijozga maksimal qiymat yetkazish yotadi, natijada, bu brend tarafdorlarini yaratadi va brend obro‘cini oshiradi, bu esa o‘shirishga hissa qo‘shadi.
2. Samaradorlik va mahsuldorlikning oshishi	Lean Managementning asosiy maqsadi –yo‘qotishlarni bartaraf etish, jarayonlarni soddalashtirishdan iborat. Tashkilotlar ish oqimlarini optimallashtirish, qiymat qo‘shmaydigan faoliyatlarni qisqartirish va resurslarni maksimal darajada samarali taqsimlash orqali yuqori samaradorlik hamda mahsuldorlikka erishishlari mumkin.
3. Yetkazib berish vaqtining qisqarish.	Qiymat oqimini xaritalash kabi Lean prinsiplaridan foydalangan holda, jamoalar jarayonlardagi muammolarni tezda aniqlaydilar va ularni samarali boshqarish orqali jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtiradilar.
4. Xodimlarni jalb etish va vakolatlar berish.	Lean Management yordamida tashkilotning turli qatlamlarini integratsiyalash va bo‘linmalarni kamaytirish innovatsiya hamda strategik tashabbuslarda ishtirok etish motivatsiyasini kuchaytiradi hamda jamoalarga adekvat qiymatni ta‘minlash maqsadida tegishli qarorlarni o‘z vaqtida qabul qilish imkoniyatini beradi.
5. Barqaror raqobat afzalligi.	Lean Managementni o‘z madaniyatiga integratsiya qilgan tashkilotlar doimiy ravishda yo‘qotishlarni aniqlash va bartaraf etish, samaradorlikni bosqichma-bosqich oshirish hamda mijozlarga maksimal qiymat yetkazishga moslashish orqali o‘z sohasida yetakchi



bo'lish va ushbu mavqei saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1-jadval Lean Konsepsiyasi uslublar tahlili.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Lean Management biznes jarayonlarini optimallashtirish va tashkilot samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligi ta'kidlangan. Mazkur yondashuv yo'qotishlarni kamaytirish, jarayonlarni tezlashtirish, sifatni yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish hamda mijoz ehtiyojlarini qondirish kabi asosiy maqsadlarni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan. Umuman olganda, biznes jarayonlarini optimallashtirishda taym-menejmentning hamma zamonaviy metodlari muhim ahamiyatga ega va ularning har biri muhim jihatlari, o'ziga xos afzalliklari yoki cheklovlariga ega. Agile, Kanban va Lean usullarini qo'llash orqali ish jarayonlarini samarali tashkil etish, vaqt resurslaridan oqilona foydalanish va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish mumkin [8]. Shu sababli ushbu metodlarni tashkilotlar boshqaruv amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar zamonaviy taym-menejment metodlarini turli soha korxonalarida qo'llash samaradorligini empirik ma'lumotlar asosida o'rganishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, biznes jarayonlarini optimallashtirishda raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv tizimlarini integratsiya qilish masalalarini chuqur o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Highsmith, J. (2009). Agile Project Management: Creating Innovative Products. Boston: Addison-Wesley, pp. 25–40.
2. Womack, J.P. & Jones, D.T. (2003). Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation. New York: Free Press, pp. 10–28.
3. Anderson, D.J. (2010). Kanban: Successful Evolutionary Change for Your Technology Business. Washington: Blue Hole Press, pp. 35–60.



4. Schwaber, K. & Sutherland, J. (2020). The Scrum Guide. Scrum.org, pp. 5–15.
5. Liker, J.K. (2004). The Toyota Way: 14 Management Principles from the World's Greatest Manufacturer. New York: McGraw-Hill, pp. 37–55.
6. Abdurahmonov, Q.X. (2019). Menejment. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, pp. 112–128.
7. Yo'ldoshev, N.Q. (2020). Strategik menejment. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, pp. 85–102.
8. G'ulomov, S.S. (2018). Innovatsion iqtisodiyot va menejment. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, pp. 67–80.
9. Касимова Ф. Т. Особенности и отличительные свойства малого бизнеса и частного предпринимательства //Молодой ученый. – 2017. – №. 1. – С. 193-195.
10. Tulkunovna, Kasimova Fatima. "ISSUES OF EVALUATING THE LEVEL OF DEVELOPMENT OF MARKETING ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." *ЕВРАЗИЙСКИЙ СОЮЗ УЧЕНЫХ (ЕСУ)* 17.
11. Kasimova F. Trends and Prospects for the Development of Digital Marketing Activities in Small Business //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 5.
12. Axinjanovna X. K. Current Problems of the Chemical Industry of the Republic of Uzbekistan //Journal of Economics and Business Management. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 53-58.